SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NASIROVA MOXIGUL FURKATOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KORONEOLOGIZMLARNING TIPOLOGIYASI, LEKSIKOGRAFIK TALQINI VA TARJIMASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.512.133+811.111:81’373.43

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Nasirova Moxigul Furkatovna
Ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning tipologiyasi, leksikografik talqini va tarjimasi 3

Насирова Мохигул Фуркатовна
Типология, лексикографическая интерпретация и перевод коронеологизмов в английском и узбекском языках 25

Nasirova Mokhigul Furkatovna
Typology, lexicographical interpretation and translation of coroneologisms in English and Uzbek languages 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published work..... 55

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/ 2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NASIROVA MOXIGUL FURKATOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KORONEOLOGIZMLARNING TIPOLOGIYASI, LEKSIKOGRAFIK TALQINI VA TARJIMASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4189 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http//www.samdchti.uz) “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Obruyeva Gulchexra Xamrakulovna** filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xayrullayev Xurshid Zayniyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Azzamov Yusufjon Rajabboyevich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro Davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning “19” noyabr 2026-yil soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (66693 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “30” oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “30” oktabr dagi № 61 -raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli sohalar terminologiyasi, ularni boshqa tillardan o‘zlashtirishning lingvistik va madaniy masalalarini talqin qiluvchi tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Tilshunoslar diqqat markazida “lison-nutq” masalasini turli daraja va ko‘rinishda namoyon qiluvchi “til va jamiyat”, “til va madaniyat”, “til va shaxs”, “milliy til va milliy tafakkur”, “til va sun’iy intellekt” kabi substansial asoslarda hal qilinuvchi muammolar turadi. XX asr so‘ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalari – lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg‘or fan yo‘nalishiga oid masalalarni tadqiq etish maqsadida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ishning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida har bir xalqning qardosh xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalari yuzasidan zaruriy bo‘lgan lingvistik va nolingvistik omillarni o‘rganish, turli sohalar atamashunosligi hamda ixtisosliklar tilini shakllantirish singari ustuvor masalalar yechimiga qaratilgan ishlar tadqiqiga keng o‘rin ajratilmoqda. Dunyoda yuzaga kelayotgan turli voqea hodisalar, tabiiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, xususan, muhim ilmiy atama – koroneologizmning vujudga kelishiga zarurat yaratdi. Yangi texnologiyalarning yaratilishi, ayniqsa, KOVID-19 pandemiyasi davridagi masofaviy faoliyatlar neologizmlar paydo bo‘lishini yanada jadallashtirdi. Pandemiya davridagi kutilmagan hayot tarzi – “uyda qolish” jarayonida jamiyatning turli sohalarida sodir bo‘lgan keskin o‘zgarishlar tilshinoslikda tezkor yangi so‘zlar yaratilishiga zamin yaratdi. Ko‘plab ilmiy va tibbiy atamalar xalq orasiga ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tez sura’tlarda tarqalib ommaviylashdi hamda keng iste’molga kiritildi. Xorijiy mamlakatlarda KOVID-19 neologizmlari 2020-2021 yillarda jadal yaratilib rasmiy va elektron lug‘atlarga kiritildi.

O‘zbek tilshunosligida Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar natijasida qiyosiy tilshunoslikda atamashunoslikni mustaqil soha sifatida talqin etish, atama-so‘zlarning iste’molda qo‘llanilish qiymatini, amaliy ahamiyatini, yashovchanligini sinovdan o‘tkazish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada har bir sohaning lisoniy vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi, so‘z qo‘llashdagi umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatuvchi amaliy-terminologik tahlil asosidagi tadqiqotlar ustuvorligi kuzatila boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi globallashgan dunyoda tillarning bir-biriga o‘zaro ta’siri, jumladan, chetdan so‘z qabul qilish ko‘lami va sur’ati ortib bormoqda. Afsuski, yurtimizda bu jarayon aniq tizim va ilmiy yondashuvlarsiz yuz berayotganini tan olgan holda, mavjud holatni bartaraf etish uchun ta’sirchan choralar ko‘rish lozim[1]”. Ushbu maqsadga erishishda xalqning ma’naviy merosini, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklarini tadqiq etish muhim omillardan biridir. Ayniqsa, ilm-fan istilohlaridan biri bo‘lmish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/2954 (murojaat sanasi: 12.01.2024).

koroneologizmlarni turli tillar materiali asosida qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish bo‘yicha qo‘lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o‘rganishdan uning voqelanish xususiyatlarini keng qamrovli tadqiq etishga o‘tish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Shu asnoda, koroneologizmlarni tizimli tahlil qilish hamda boshqa tillardagi koroneologizmlar bilan qiyosiy tadqiq etish, tarjima qilish va terminologik lug‘atini yaratish tilshunosligimizdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 19-martdagi PF-5969-sonli “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirni yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘rida”gi farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-sonli “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. KOVID-19 pandemiyasi dunyo tillarining semantik tuzilishiga dastlabki daqiqalaridan boshlab sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Butun dunyo bo‘ylab pandemiya davrida turli jargon va texnik atamalarning keng qo‘llanilishi va amaliyotda tezkor tadbiq etila boshlashi natijasida neologizmlar – koroneologizmlar paydo bo‘ldi. Bu birliklar ommaviy axborot vositalari orqali global miqyosda tez tarqalib, kundalik nutqdan mustahkam o‘rin oldi, ayrimlari esa rasmiy manbalarga ham kiritildi. Koroneologizmlarning zamonaviy tilshunoslikka, xususan, sotsiolingvistika, korpus tilshunosligi, leksikologiya, leksikografiya, semasiologiya, tarjimashunoslik va etimologiyaga ta’siri muammosini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri

hisoblanadi. Mazkur tadqiqot Mark Devisning 2020-2022-yillardagi pandemiyaga oid ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalardagi 1,9 million matnlarni qamrab olgan Koronavirus korpusi, o‘zbek tili korpusi, normativ-huquqiy hujjatlar va tilshunos olimlar tadqiqotlariga tayangan holda ingliz va o‘zbek koroneologizmlarining leksikografik talqini, lingvomadaniy farqlari hamda tarjima xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Jahon tilshunosligida nemis leksikograflari A.Klosa-Kückelhaus, I.Kernerman pandemiya davri yangi so‘zlarini turli tillarda ishlatilishini tizimli tahlil qilib ularning turli lug‘atlardagi leksikografik talqinini izohlashgan. Britaniyalik professor P.Nyumark tarjimani mahorat emas balki fan darajasiga ko‘tarib, uni semantik va kommunikativ tarjimaga ajratgan. A. Rey fransuz leksikografi sifatida “tilning tirik organizm” ekanligini va doim yangi so‘zlar – neologizmlarni jamiyat ehtiyojiga qarab yaratishini ta’kidlagan. Yana bir britaniyalik olima A. Renouf neologizmlarni yangi paydo bo‘lgan so‘z sifatida emas balki ma’lum ijtimoiy jarayon bosqichlaridan eson-omon o‘tgan so‘zlar deb biladi. M.Kolobe ingliz va afrika tillaridagi neologizmlarning o‘zaro grammatik moslashuvini o‘rganadi. Filipinlik K.Akut pandemiyaning dastlabki oylarida paydo bo‘lgan koroneologizmlar tadqiqi bilan shug‘ullangan bo‘lsa, Ispaniyalik olima A. Roig–Marin ham ayni shu vaqtda koroneologizm terminini ommalashishiga xizmat qilgan[2]. Neologizmlar tadqiqotida rus tilshunoslarining o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, E. Ginzburg leksikologiya sohasidagi eng yirik nazariyachi olim bo‘lib, yangi so‘zlarning qanday yasalishi va til tizimidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Y.Levchenko media lingvistika sohasida faol bo‘lib, OAV orqali neologizmlarning jamiyatga kirib borishini muhokama qiladi. A.Samigoullina va N. Semerdjidilar esa KOVID-19 pandemiyasi davrida blending (so‘zlarni qorishtirish) usulida shakllangan koroneologizmlarni tadqiq qilishgan hamda “koroneologizm” terminidan faol foydalanishgan. Ukrainalik V.Yuliia Shnip vaqt bilan bog‘liq neologizmlarni tahlil etgan[3].

O‘zbek tilshunosligida A.Axmedov, N.Abdurahmonova, M.Dautova, M.Isoqov, N.Isakova, H.Shokirova, M.Sobirova, S.Tojiboeva kabi tadqiqotchilar

---

[2] Klosa-Kückelhaus A., Kernerman I. Lexicography of Coronavirus-related Neologisms. – Berlin / Boston: Walter de Gruyter GmbH, 2022. – 312 p.; Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 311p.; Rey A. Essays on Terminology. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1995. – 223 p.; Renouf A. A finer definition of neology in English: The life-cycle of a word // Proceedings of the 5th International Conference on Corpus Linguistics (CILC2013), Procedia – Social and Behavioral Sciences, 2013. – P. 146-154; Kolobe M., Analysis of Neologisms in Newspapers // US-China Foreign Language, April 2015. – Vol. 13, N. 4. – P. 231-236; Akut K. B. Morphological analysis of the neologisms during the COVID-19 pandemic // International Journal of English Language Studies, 2(3), 2020 – P. 1-7; Roig–Marin A. English-based Coroneologisms: A short survey of our COVID-19-related vocabulary // English Today, 2020 //15(3). – P. 1-3.

[3] Гинзбург Е.Л. Словообразование и синтаксис. – М.: Наука, 1979. – 264 с.; Levchenko Y. Neologism in the lexical system of modern English. – Munchen, Germany: GRIN Verlag, 2010. – 140 p.; Samigoullina A.D. A Study of English Blends Related to Covid-19 // Russian Linguistic Bulletin, no. 1(25), Apr. 2021. – P.65-71; Семерджиди В.Н. Коронеологизмы и способы их образования // Актуальные аспекты лингвистики, лингводидактики и межкультурной коммуникации. – Краснодар, 2021. – С. 137-143; Yuliia V. Shnip. Types of English Neologisms of 2016-2017 Representing the Universal Concept of Time // Philological Sciences. – P. 6-15; Васильева Д. Неологизмы эпохи COVID-19 в лексикографическом отражении: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2025. – 183 с.; Акимцева А. С. Неологизмы эпохи COVID-19 в лексикографическом отражении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: МГИМО, 2023. – 26 с.

o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi leksik birliklar, neologizmlar, terminlar, atamalarning morfologik va semantik moslashuvini tahlil qildilar[4].

Mavjud tadqiqot asarlarining ilmiy ahamiyatini e’tirof etgan holda ta’kidlash joizki, ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning leksikografik talqini alohida o‘rganilmaganligi tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi. Zero, bu tadqiqotlarning hech birida ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning leksik-semantik tadqiqi, ularning leksikografik talqini va tarjima muammolari tizimli ravishda yoritib berilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti “Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi” kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan “Zamonaviy ingliz tilida leksik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish” mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. KOVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan yangi so‘zlar va atamalarning leksikografik, leksik-semantik hamda derivatsion (so‘z yasalish) xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning qo‘llanilishi, lingvomadaniy-semantik jihatlari va tarjima xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilidagi koroneologizmlar paydo bo‘lishida ingliz tilining ustuvorligi asosida atamalarning faol va passiv so‘z boyligining leksikografik talqini o‘rtasidagi farqni aniqlash hamda passiv leksikada xorijiy so‘zning ona tilidagi izohi berilishi, aktiv leksik birliklarda esa ona tilidagi so‘z yordamida uning xorijiy ekvivalentini topish imkoniyati mavjudligi hamda so‘z yasash modellarining o‘zlashgan birliklari tilga assimilyatsiya qilish omili ekanligini asoslash;

koroneologizmlar tarjimasida transliteratsiya/transkripsiya usullarining ustunlik qilishi, pandemiya bilan bog‘liq matnlar tarjimasida assotsiatsiya, kengaytirilgan deskriptiv izoh yoki vazifaviy ekvivalent metodlari yetakchilik qilishini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlar tarjimasining muhim jihatlaridan biri sifatida xorijiy elementlarga ega KOVID-19 neologizmlarini matnlararo izohlashda madaniyat omilining yetakchi o‘rin turishini aniqlash, mahalliy madaniyatga to‘liq moslashtirish (domestication) hamda mutlaq xorijlashtirish (foreignization) yondashuvlarini muvofiqlashtirishda mutanosiblik strategiyasining afzalligini ko‘rsatish;

---

[4] Axmedov A. Neologizmlar faollashuvining sotsiolingvistik omillari hamda strukturaviy-semantik, lingvomadaniy va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dok. (DSc)… diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2025. – 72 b.; Abdurahmonova N. Madaniy moslashuv va neologizmlar tarjimasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2020. – B. 88-90; Dautova M. Ingliz va o‘zbek tillarida modaga oid neologizmlarning lingvistik xususiyatlari: Filol. fan. dok. (PhD)… diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2024. – 54 b.; Isoqov M. O‘zbek tili neologizmlarining paydo bo‘lish omillari va leksikografik talqini. – Farg‘ona, 2021. – 45 b.; Isakova N. Mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so‘zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)... diss. Avtoref. – Samarqand, 2020. – 24 b.; Shokirova H. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi: Darslik. – Farg‘ona davlat universiteti: “Classic” nashriyoti, 2023. – B. 33-34; Sobirova M. O‘ zbek tilida faol so‘z yasalishi va muallif neologizmlari: Monografiya. - Farg‘ona 2021. – 112 b.; Tojiboeva S. Zamonaviy neologizmlar va tarjima: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2019. – B. 12.

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning lug‘aviy ma’nosiga koronavirus pandemiyasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tabiiy omillarning ta’siri hamda yangi so‘zlarning tez paydo bo‘lishida ommaviy axborot vositalari va zamonaviy texnologiyalarning o‘rnini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz tili orqali o‘zbek tiliga kirib kelgan 137 ta koroneologizmlar tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning tipologiyasi, leksikografik-semantik, derivatsion (so‘z yasash) xususiyatlari hamda tarjima muammolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, uslubiy-kontekstual hamda umumlashtirilgan ilmiy proportsional statistik model usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidagi koroneologizmlarning kelib chiqishida ingliz tilining dominantligi, mazkur neologizmlarning faol va passiv leksikadagi leksikografik talqini o‘rtasidagi farq passiv so‘z boyligida xorijiy so‘zning ona tilidagi izohi berilishi, aktiv leksikada esa ona tilidagi so‘z orqali uning xorijiy ekvivalentini topish mumkinligida namoyon bo‘lishi hamda derivatsion xususiyatlar o‘zlashgan birliklarni tilga moslashtirish vositasi ekanligi asoslangan;

koroneologizmlarni tarjima qilishda transliteratsiya va transkripsiya usullarining yetakchi metod sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanib, yangi leksik birliklarning shakl va mazmun yaxlitligini saqlashda izohlash metodi zaruriyati, pandemiyaga oid matnlar tarjimasida assotsiativ tarjima, kengaytirilgan tavsifiy izoh hamda funksional muqobil usullarning ustuvorligi ilmiy jihatdan dalillab berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlar tarjimasining muvofiqligini ta’minlashda madaniyat omili yetakchi ekanligi aniqlanib, mahalliy madaniyatga to‘liq moslashtirish (domestication) hamda mutlaq xorijlashtirish (foreignization) yondashuvlarini muvofiqlashtirishda uyg‘unlik strategiyasining samaradorligi ko‘rsatilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning semantikasida koronavirus pandemiyasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tabiiy omillarning ta’siri hamda yangi leksik birliklarning jadal shakllanishida ommaviy axborot vositalari va zamonaviy texnologiyalarning roli tahlil etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

global muammolar hamda ommaviy axborot vositalari ta’siri asosida o‘zlashtirilgan koroneologizmlarning tasnifi ishlab chiqilgan hamda KOVID-19 mavzusiga oid lingvistik birliklar, istilohlar majmuining ingliz, o‘zbek, rus tillaridagi mushtarak izohli lug‘ati shakllantirilgan;

ommaviy axborot vositalaridagi KOVID-19 mavzusiga oid matnlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘girishda lingvomadaniy, semantik hamda leksokografik aspektlarda namoyon bo‘ladigan tillararo tafovutni muvofiqlashtirishning boshlang‘ich yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan;

ingliz va o‘zbek koroneologizmlarning aktiv va passiv so‘z boyligidagi xususiyatlari talqin etilishi orqali leksikografiya an’analari asosida zamonaviy tilshunoslikda koroneologizmlar tarjimasiga oid tavsiyalarning yetarli emasligi

isbotlanib, ularning muqoyasa qilinayotgan tillardagi ekvivalent va muqobil variantlarini qo‘llash bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va tanlangan metodlar bilan uyg‘unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan ilmiy dalillarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar asosida tatbiq etilganligi, olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilgani va ularning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati 1) koroneologizm tushunchasi, uning turlari va shakllanish omillariga doir qarashlarning KOVID-19 pandemiyasi, neologizm nazariyasi, til va jamiyat, til va madaniyat nuqtayi nazaridan talqin qilinishi; 2) koroneologizmlar leksikografik talqini va leksik-semantik hamda lingvomadaniy tadqiqining ingliz va o‘zbek tillari misolida amalga oshirilganligi; 3) koroneologizmlarining tarjima usullari va lingvistik transformatsiyalari muammosining qiyosiy aspektda kompleks tarzda o‘rganilganligi orqali belgilanadi. Bu esa neologiya, leksikologiya, kognitiv tilshunoslikning integrativ rivojlanishiga asos bo‘ladi. Bunday ilmiy-nazariy yondashuv ingliz va o‘zbek tillaridagi neologik birliklarning lingvomadaniy, kognitiv va semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida o‘rganish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o‘zlashtirma yangi terminlar tipologiyasi, ularning leksikografik talqini va tarjima usullari bo‘yicha ishda keltirilgan tadqiqot materiallari va xulosalardan oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida matn va nutqning tipologik hamda lingvomadaniy tahlili, neologiya va leksikografiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda, magistrlik va PhD dissertatsiyalarini yozishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda hamda o‘zlashtirma neologizmlar asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni boyitishda, izohli lug‘atlar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarni tipologik, leksikografik va tarjimashunoslik aspektlarida tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy xulosalari va natijalari asosida:

o‘zbek tilidagi koroneologizmlarning kelib chiqishida ingliz tilining dominantligi, mazkur neologizmlarning faol va passiv leksikadagi leksikografik talqinining farqi passiv so‘z boyligida xorijiy so‘zning ona tilidagi izohining keltirilishida, aktiv leksikada ona tilidagi so‘z orqali uning xorijiy ekvivalentini topish mumkinligida namoyon bo‘lishi hamda derivatsion xususiyatlar o‘zlashgan birliklarni tilga moslashtirish vositasi ekanligi xususidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-oktabrdagi № 3338/02-son ma’lumotnomasi).

Natijada ilmiy xulosalarning qo‘llanilishi, shuningdek, foydalanilgan ilmiy metodik tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qilgan;

koroneologizmlarni tarjima qilishda transliteratsiya va transkripsiya usullarining yetakchi metod sifatida namoyon bo‘lishi, yangi leksik birliklarning shakl va mazmun yaxlitligini saqlashda izohlash metodi zaruriyati hamda pandemiyaga oid matnlar tarjimasida assotsiativ tarjima, kengaytirilgan tavsifiy izoh hamda funksional muqobil usullarning ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslanishi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining “Erasmus+ 58545- EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP” CLASS:Computational linguistics at Central Asian universities” nomli xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 10-noyabrdagi 04/2283-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida o‘tkazilgan sotsiolingvistik so‘rovnomalarda axborot mazmundorligining takomillashuviga va pragmatik ta’sirining kafolatli bo‘lishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlar tarjimasining muvofiqligini ta’minlashda madaniyat omili yetakchi ekanligi hamda uni mahalliy madaniyatga to‘liq moslashtirish (domestication) yoki mutlaq xorijlashtirishni (foreignization) muvofiqlashtirishda uyg‘unlik strategiyasining samaradorligi to‘g‘risidagi xulosalar va amaliy takliflardan Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yevropa Ittifoqining Erasmus+ Jean Monnet dasturi tomonidan moliyalashtirilgan 101239140-sonli “Fostering EU Knowledge and Sustainability Practices in Uzbekistan: The Jean Monnet Module on European Sustainable Development and Sustainability Science (EUSUSTAIN)” nomli xalqaro loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2025-yil 12-noyabrdagi 02-1501-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning ekvivalent va muqobil variantlarini izlashda madaniy omillar ta’sirida neytrallashtirishning samaralari to‘g‘risida talabalarning kognitiv tasavvurlari boyitilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning semantik ma’nosida koronavirus pandemiyasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tabiiy omillar ta’siri hamda yangi leksik birliklarning jadal shakllanishida ommaviy axborot vositalari va zamonaviy texnologiyalar roli haqida Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi 2025-yil noyabr oyida efirga chiqqan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvining navbatdagi soni ssenariyasini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 6-noyabrdagi 01-07/357-son ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning KOVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo‘lgan koroneologizmlarning semantik jihatlari madaniy, ijtimoiy-tarixiy va lisoniy-madaniy hamda tabiiy omil ekanligi to‘g‘risidagi bilimdonligining oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestasiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matni 125 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Neologizm nazariyasi, uning vujudga kelish omillari, turlari va tilshunoslikdagi ahamiyati”** deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tashkil topgan. Bobning “*Neologizm tushunchasi, uning turlari va kelib chiqish sabablari”* deb nomlangan birinchi faslida neologizm tushunchasi ilmiy jihatdan yoritib berilgan, neologizmlar turlari tasniflangan va ularning shakllanish omillari yoritilgan. Neologizmlar deganda tilda qo‘llaniladigan yangi tushunchalar, texnologiyalar, xatti-harakatlar, ijtimoiy va madaniy sharoitlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan so‘zlar tushuniladi[5]. Bu so‘zlar ko‘pincha tildagi ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birikmasidan olingan bo‘lib, ba’zan chet tillardan ham o‘zlashgan bo‘ladi. Neologizmlar (yun. neos – yangi, logos – so‘z) – jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar[6] deb ta’riflansa-da, ammo neologizmlarning vujudga kelishi jamiyatning faqatgina taraqqiyoti emas, balki uning inqirozga duch kelishi natijasida ham paydo bo‘ladi.

Sotsiolingvistik tadqiqot guruhlarning elektron intervyulari natijalari shuni ko‘rsatdiki, koroneologizmlarning yaratilishiga sabab bo‘lgan omillarning birinchisi paradigma nuqtayi nazaridan, pandemiya davridagi ijtimoiy harakatlardir. Masalan, “Uberise” ning yaratilishi. Uber haydovchilarining KOVID-19 pandemiyasi davrida belgilangan ish soatlariga qarshi noroziliklari bildirildi. Yana bir omil bu shaxsiy himoya vositalarining qisqartmasi bo‘lgan PPE (personal protective equipment) hamshiralarning shaxsiy himoya vositalarining yetishmasligiga qarshi norozilik bildirish jarayonida yaratilgan. Yana bir misol sartaroshlarning faoliyatiga qarshi bildirilgan norozilik va ularning faoliyatining to‘xtatilishi natijasida yaratilgan “Yashirin sartaroshlar” kabi neologizmlar. Ular dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan cheklov siyosatining birinchi nishoni bo‘lgan. Ikkinchi omil KOVID-19 pandemiyasi natijasida raqamli texnologiyalar, xususan, masofaviy ta’lim va

[5] https://www.merriam-webster.com/wordplay/mansplaining-definition-history (murojaat sanasi: 14.11.2023).
[6] https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar (murojaat sanasi: 14.11.2023).

masofaviy konferensiya hamda masofaviy yig‘ilishlarning yangi bosqichga ko‘tarilganligidir. Masalan, “Body Mullet” va “Upperwear” so‘zlari onlayn darslarda va virtual ish uchrashuvlarida kiyinish uslubi sifatida *biznes-up top* (dress code) deb atalgan. Yana bir misol, “ZOOM” platformasining keng ishlatilishi natijasida “Zoombi” yoki “Zoombombing” kabi atamalarning paydo bo‘lishi. Koroneologizmlarning yaratilishining uchinchi sababi, KOVID-19 epidemiyasi davrida turli jamiyatlarda xavfsizlik tartib-qoidalari va gigiena qoidalariga rioya qilish yoki ularga e’tiborsiz bo‘lish holatlariga bog‘liqdir. Masalan, “Caremonger[7]” (pandemiya davrida jamiyatda o‘z ixtiyori bilan yordam qo‘lini cho‘zgan ko‘ngillilar guruhi) so‘zi va uning dunyo tillaridagi ekvivalenti hisoblanadi.

Koroneologizmlar esa o‘z navbatida muayyan omillar natijasida vujudga keldi va shakllandi. Ushbu termin 2020-yilda KOVID-19 pandemiyasi davrida tarqalgan neologizmlarni umumlashtirish jarayonida corona+neologism (korona+neologizm) so‘zlar birlshmasidan **kontaminatsiya** (ikki so‘zning qismlarini biriktirish) usuli bilan yasalgan. Ilk marotaba 2020-yil 9-aprelda e’lon qilingan[8]. O‘zbek tiliga esa bu atama tayyor terminalogik birlik sifatida kirib kelgan.

Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning leksik-semantik tadqiqi”* deb nomlangan. Til favqullodda holatlarda (pandemiyada) yangi so‘zlarni o‘ylab topmaydi, balki zahirada mavjud leksik birliklarni aralashtirish (blending), so‘z yasalishi (derivatsiya), affiksatsiya (qo‘shimchalar orqali yasash), abbreviatsiya (qisqartirish) usullari orqali lug‘at tarkibini boyitadi. Insoniyatning pandemiya davridagi yangi hayot tarzini ifodalovchi, tilning moslashuvchan ekanligini ifodalovchi tematik neologizmlar – koroneologizmlar tilning yashirin imkoniyatini qisqa muddat ichida ko‘rsata oldi.

“Koroneologizm” terminining ilmiy maqomi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u hozirgi kunda to‘liq normativ termin sifatida mustahkamlanmagan bo‘lsa-da, zamonaviy lingvistik diskursda faol qo‘llanilayotgan tushunchalardan biridir. Ushbu terminni ilmiy jihatdan quyidagi tarzda tavsiflash mumkin: Birinchidan, u neologiya doirasida shakllangan yangi ilmiy termin hisoblanadi. Ikkinchidan, u funksional xarakterga ega, ya’ni muayyan ijtimoiy-tarixiy vaziyat – pandemiya bilan chambarchas bog‘liq. Uchinchidan, u hali terminologik jihatdan standartlashmagan bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda muqobil atamalar bilan parallel qo‘llaniladi. Shu jihatlarni inobatga olib, “koroneologizm” terminini “shakllanish bosqichidagi ilmiy birlik” yoki “yarim-normativ termin” sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Koroneologizmlar – leksik-semantik sohaga tegishli yangi so‘zlar bo‘lib, ular quyidagilar natijasida yuzaga keldi:

1) semantik rivojlanish (“antikorlar”, “antijenlar”...);
2) tibbiy atamalarni tez-tez ishlatish;
3) yangi qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishi (“koronavirus”);
4) morfologik hosila (“covidity[9]”).

---

[7] https://www.cbc.ca/news/canada/edmonton/medical-students-army-caremongers-coronavirus-crisis-1.5500639 (murojaat sanasi: 17.11.2024).

[8] Coroneologisms are going viral // https://economictimes.indiatimes.com/blogs/et-editorials/coroneologisms-are-going-viral/(murojaat sanasi: 15.11.2024).

[9] Покотило Д. В. Коронеологизмы // Язык и культура, no. 2 (34), 2022. – С. 77-84.

Pandemiya davrida ijtimoiy tarmoqlar KOVID-19 bilan bog‘liq muhim ma’lumot manbasiga aylandi. Pandemiyaga oid turli xabarlar, voqea-hodisalar keng tarqala boshladi. Aynan pandemiya davrida ko‘plab korxonalar faoliyati to‘xtab qolgani, ta’lim muassasalarida ta’til e’lon qilingani sababli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi oshib bordi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, birgina instagramning o‘zida “#corontimes” xeshtegi bilan 195 mingdan ortiq post mavjud. Bulardan tashqari taxminan 5,5 mingta post “#blursday” xeshtegi ostida nashr qilingan. O‘zbekistonda Kun.uz va boshqa elektron OAV lari pandemiya davrida yangi so‘zlarning tarqalishida muhim rol o‘ynadi. Masalan, “ijtimoiy masofa”, “simptomsiz”, “karantin tartibi va choralari”, “kovididiot”, “karantinkul”, “koronapanika”, “zumlashish” kabi so‘zlar[10].

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi koroneologizmlarning leksikografik talqini va shakllanish usullari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “*Zamonaviy leksikografiya tendensiyalarining neologizmlar lug‘atlarining shakllanishidagi ta’siri”* deb nomlangan. Neologizmlarning tasnifi va lug‘atlashtirilishi tilshunoslikda muhim sanaladi. Neologizmlarni tahlil qilishda ularni tasniflash katta ahamiyatga ega. Til bu jamiyat hayotining in’ikosidir. Har qanday o‘zgarish, yangilik, ijtimoiy jarayon tilda o‘z aksini topadi. Bu jarayonlar tilni boyitadi, leksik qatlamga yangi birliklar qo‘shiladi. Neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy natijasidir.

Masalan, O‘zbekistonda KOVID-19 pandemiyasi davrida “karantinchilik”, “onlayndars”, “dezinfeksiya nuqtasi”, “ZOOM uchrashuv” kabi yangi birliklar jamoatchilik tiliga tezda kirib keldi va ommaviylashdi. Bunday birliklar ba’zan xalq og‘zaki nutqida, ba’zan esa ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda shakllanadi[11]. Neologizmlar, ayniqsa, global hodisalar (masalan, pandemiya, urush, sun’iy intellekt taraqqiyoti) ta’sirida tilga kirib keladi va uning leksik tarkibini boyitadi. Neologizmlarning lug‘atlashtirilishi – bu ularni rasmiylashtirish, tildagi mavqeini mustahkamlash, yozma va og‘zaki nutqda to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlash demak. Neologizmlar lug‘ati tarjimonlar uchun ayniqsa muhim, chunki yangi atamalar ko‘pincha noto‘g‘ri tarjima qilinadi yoki umuman tarjima qilinmaydi. Masalan, “lockdown” so‘zi ba’zan *“qattiq karantin”*, ba’zan *“uydan chiqmaslik holati”* deb turlicha tarjima qilinmoqda. Yoki “remote work” ba’zan *“masofadan turib ishlash”*, ba’zan *“masofaviy mehnat”* deb atalmoqda[12]. Jurnalistlar esa yangi birliklarni to‘g‘ri ishlatish uchun yagona manbaga muhtoj. Aynan neologizmlar lug‘ati bu ehtiyojni qondiradi. Leksikografiyada neologizmlar alohida bob sifatida ajratib ko‘rsatilmaydi, balki ular tilning boshqa faol va passiv qatlamlari bilan birga umumiy lug‘at tarkibida ifodalanadi. Shu sababli, yangilik darajasini aniqlash, ularni umumiy leksik qatlamdan ajratib olish murakkab bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda yangi so‘zlar uzoq vaqt davomida nutqiy amaliyotda ishlatilsa-da, rasmiy lug‘atlarga

[10] https://strategy.uz/index.php?news=1017&lang=uz (murojaat sanasi: 17.11.2024).
[11] Yusupova N. COVID-19 pandemiyasi davridagi o‘zbek tilidagi yangi leksik birliklar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021 – №3. – B. 45–48.
[12] Tursunov F. Yangi terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari // Tarjima nazariyasi va amaliyoti, 2022, №2. – B. 40–44.

kiritilmasligi mumkin. Bu esa izohli lug‘atlarning zamonaviy til holatiga har doim ham yetarli darajada moslasha olmasligini ko‘rsatadi[13].

Muloqot vositalarning kengayishi va ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta’siri natijasida tilga kirib kelayotgan yangi so‘zlar soni keskin ortdi. Bu holat, ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida yaqqol namoyon bo‘ldi. Aynan shu davrda yuzlab yangi atamalar, ya’ni ***koroneologizmlar*** tilga kirib keldi va ularning aksariyati hanuz faol leksik qatlamda saqlanib qolmoqda[14]. Shu boisdan ham, hozirgi davr tilshunosligida neologizmlarni tizimli tahlil qilish, ularni leksikografik manbalarda qayd etish va zamonaviy lug‘atlar tarkibiga kiritish dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz tilidagi koroneologizmlarning leksikografik talqini va yasalish usullari”* masalasiga bag‘ishlangan. Leksikografik talqin – bu lug‘atlardagi so‘z va iboralar mazmunini izohlash, ularning ma’nolarini ochib berish jarayonidir. Bu jarayon lug‘atning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u foydalanuvchilarga so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini anglab olishi, ularning kontekstda qanday qo‘llanishini va boshqa til birliklari bilan qanday bog‘lanishini tushunishga yordam beradi.

Koronavirus pandemiyasi texnologiyalar asrida sodir bo‘lgani uchun shiddat bilan yaratilgan leksik birliklar butun dunyoga ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqaldi.Ushbu davrda shakllangan koroneologizmlar ingliz tilida *derivatsion* (so‘z yasash) imkoniyatlarining odatdagidan ko‘ra ko‘proq faollashishiga sabab bo‘ldi. Koroneologizmlar blending (ikkita mavjud so‘zlardan yangi so‘z hosil qilish), “compounding” (qo‘shma so‘z yasalishi), “affixation” (qo‘shimcha bilan yasalishi), “abbrevation” (qisqartmalar), clipping (so‘zning yarmini qisqartirish), “semantic shift” (ma’no siljishi) kabi derivatsion modellarning pandemiya sharoitida favqulodda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va tibbiy vaziyatlarga qanday moslashganini ko‘rsatadi. KOVID-19 bilan bog‘liq neologizmlarni shakllantirishning eng ko‘p tarqalgan usuli – bu “blending” usuli, ya’ni ikkita oldindan mavjud leksemalarning birlashishidir. “Blending” (inglizcha *blend* – aralashtirmoq) birinchi so‘zning boshi va ikkinchi so‘zning yakuniy qismini aralashtirish orqali so‘z yasashni anglatadi. Blending usuli pandemiya bilan bog‘liq yangi, umumiste’moldagi so‘zlarning yasalishida juda keng tarqalgan mexanizm bo‘lib, bunda asosan “corona” va “COVID” o‘zaklaridan foydalanilgan. Shu bois, bunday qo‘shma so‘zlarning nima uchun bu qadar ommaviylashib borayotgani haqidagi savol juda dolzarbdir. Ularning muvaffaqiyat qozonishida bir qator ekstralingvistik va lingvistik omillar rol o‘ynagan: lingvistik nuqtayi nazardan, bu usul axborotni ikki yoki ba’zi hollarda uchta so‘zlar birikishi natijasida samaraliroq yetkazish uchun qo‘llaniladi, deb aytish mumkin. Agar barcha qo‘shma so‘zlar semantik jihatdan shaffof bo‘lganida, bu izoh o‘zini to‘la oqlagan bo‘lardi[15]. Quyidagi jadvallarda Amanda Roig-Marin, Anna Samigoullina tadqiqotlari va Tony Thorne #CoronaSpeak – “the language of Covid-19 goes viral” nomli internet

[13] Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language . – Cambridge University Press, 2003. – P. 288.
[14] Kerswill P. Language Change and the Pandemic: Emergent Neologisms // Journal of Sociolinguistics, 25 (2), 2021. – P. 123-140.
[15] Roig-Marin A. Blending and compounding in English Coroneologisms // Brno studies in English, 2021. – 47(1). – P. 31-45.

sahifalaridan foydalanib, derivatsion modellar asosida yasalgan koroneologizmlarning leksikografik va etimologik tasniflari tahlil etildi:

2.1-jadval

Blending asosida shakllangan koroneologizmlar

№	Koroneologizm	Shakli	Etimologiyasi	Izohi
1	covidiot	covid+idiot	yunon tili	pandemiya qoidalariga rioya qilmaydigan shaxs yoki sarosimada qolgan shaxs xarid holati
2	coronacation	corona+vacation	lotin tili	pandemiya sababli yuzaga kelgan ta'til
3	coronanoia	corona + paranoia	paranoia - yunoncha	koronavirus bilan bog'liq kuchli qo'rquv va paranoya
4	quarantini	quarantine + martini	quarantina - italyancha "40 kun"	karantin paytida iste'mol qilinadigan ichimlikka nisbatan yumoristik birlik

2.2-jadval

"Compounding"(qo'shma so'z) asosida shakllangan koroneologizmlar

№	Koroneologizm	Shakli	Etimologiyasi	Izohi
1	armchair virologist	armchair + virologist	virus - lotincha	ilmiy bilimsiz virusologiya haqida gapiruvchi shaxs
2	body mullet	body + mullet	mullet - soch uslubi	online uchrashuvlarda yuqori qismi rasmiy, pastki qismi oddiy kiyinish
3	boomer remover	boomer + remover	remove lotincha	COVIDning katta yoshdagilar uchun xavfli ekanini kinoyaviy ifodalash
4	biosurveillance	bio + surveillance	bios - yunoncha	karantin qoidalarini texnologik kuzatish tizimi

2.3-jadval

Affiksatsiya (qo'shimcha) yordamida yasalgan koroneologizmlar

№	Koroneologizm	Shakli	Etimologiyasi	Izohi
1	COVIDist	COVID + -ist	-ist - yunoncha	pandemiya qoidalarini faol qo'llab-quvvatlovchi shaxs
2	anti-masker	anti + mask	anti - yunoncha	niqob taqishga qarshi shaxs
3	zooming	Zoom + -ing	-ing - germancha	Zoom orqali faoliyat olib borish
4	masker	mask + -er	-er - agent suffiksi	niqob taquvchi shaxs

2.4-jadval

Abbrevatsiya (qisqartmalar) usulida shakllangan koroneologizmlar

№	Qisqartma	To'liq shakli	Etimologiyasi	Izohi
1	BCV	Before Coronavirus	corona - lotincha "toj"	koronavirus pandemiyasidan oldingi davrni ifodalovchi qisqartma
2	ACV	After Coronavirus	after - inglizcha	pandemiyadan keyingi davrni anglatadi
3	PPE	Personal Protective Equipment	lotincha "protegere" ("himoya qilmoq")	tibbiyot xodimlari foydalanadigan himoya vositalari majmuasi
4	WFH	Work From Home	work germancha	uy sharoitida ishlash tizimi

2.5-jadval

“Clipping” (so‘z yarmini qisqartirish) usulida yasalgan koroneologizmlar

№	Qisqa shakl	Asl shakli	Etimologiyasi	Izohi
1	rona	coronavirus	“corona” lotincha	coronavirusning qisqartirilgan shakli
2	iso	isolation	insula - lotincha	izolatsiyaning qisqa shakli
3	quar	quarantine	quarantina - italyancha	karantinning qisqa varianti
4	vax	vaccine	vacca - lotincha	vaksinaning norasmiy shakli

2.6-jadval

Semantik siljish usulida shakllangan koroneologizmlar


№	So‘z	Yangi ma’nosi	Etimologiyasi	Izohi
1	quarantine	ijtimoiy izolatsiya	quarantina italyancha	faqat tibbiy emas, umumiy cheklov ma’nosini oldi
2	bubble	xavfsiz guruh	germancha	yaqin ijtimoiy doira ma’nosida ishlatildi
3	wave	pandemiya to‘lqini	inglizcha	kasallikning yangi tarqalish bosqichi
4	mask	kundalik atribut	arabcha orqali	himoya vositasining asosiy ramziga aylandi

Ushbu tadqiqot ishida umumlashtirilgan ilmiy proportsional statistik model KOVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan koroneologizmlarning struktur-semantik, derivatsion yasalish xususiyatlarini umumlashtirilgan holda aks ettiradi. Model Toni Thornning Coronaspeak loyihasi, Oxford English Dictionary, https://www.urbandictionary.com/define.php?term=COVID-19 elektron lug‘at bazalari hamda KOVID-19 neologizmlariga bag‘ishlangan leksik-semantik tadqiqotlar asosida ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida 137 ta koroneologizmlar leksikografik jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, KOVID-19 davri neologizmlarida eng ko‘p yasalish modeli blending 35,8 foizni tashkil etadi, ya’ni tadqiqot ishidagi 49 ta koroneologizm ushbu usulda yasalgan. Keyingi eng faol model “compounding” (qo‘shma so‘z) 29,1 foizni yoki 40 ta qo‘shma birlikni tashkil etadi. Abbreviatsiya 14,4 foizni yoki 20 ta birlikni tashkil etib, asosan tibbiy sohada tezkorlik, muloqot tejamkorligi uchun yaratilgan. “Clipping” modeli 6,3 foizni, 10 ta birlikdan iborat bo‘lib, internet slengi va og‘zaki nutq muloqoti sifatida e’tirof etiladi. Semantik siljish hodisasi natijasida yuzaga kelgan birliklar 7,2 foizni tashkil etib, mavjud so‘zlarning yangi semantik mazmun kasb etishini ifodalaydi. Affiksatsiya modeli 7,2 foizni tashkil etadi. Quyidagi jadvalda tadqiqot ishida leksikografik tahlil etilgan 137 ta koroneologizmlar statistikasi ko‘rsatilgan.

2.7-jadval

Koroneologizmlar derivatsion modellarining statistik tahlili

№	Derivatsion model nomi	Foizi	Soni
1	Blending	35,8%	48 ta
2	Compounding (qo‘shma so‘z)	29,1 %	40 ta
3	Abbreviatsiya	14,4 %	20 ta
4	Clipping(qisqarish)	6,3 %	9 ta
5	Semantik siljish	7,2 %	10 ta
6	Affiksatsiya	7,2 %	10 ta
	Jami:	100 %	137 ta



2.1-rasm. Koroneologizmlarning derivatsion yasalish modeli

Mazkur bobning uchinchi fasli *“O‘zbek tilidagi koroneologizmlarning leksikografik talqini”* deb nomlangan. Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda jamiyat hayotining barcha jabhalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va bu o‘zgarishlar til tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Pandemiya davrida ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Uyda qolgan insonlar dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalarni muntazam kuzatib borishi natijasida pandemiya davriga oid turli atamalar tez sur’atlarda tarqaldi. Ushbu jarayon davomida yangi so‘z va iboralar, ya’ni koroneologizmlar turli tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham faol shakllandi va muomalaga kirdi.


2022-yilda nashr ettirilgan 6 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dagi jami 80 000 so‘zlarning 5000 ga yaqini yangi atamalar bo‘lib, KOVID-19 pandemiyasiga oid so‘zlarning aniq miqdori bo‘yicha rasmiy statistika e’lon qilinmagan. Shu boisdan, ushbu yangi leksik qatlamning leksikografik jihatdan tizimlashtirilishi va tavsifi o‘zbek tilshunosligida hali yetarlicha o‘rganilmagan. Ayni paytda mavjud izohli lug‘atlar, soha lug‘atlari va boshqa leksikografik manbalarda koroneologizmlar keng qamrovda aks ettirilmagan. Bu esa yangi til birliklarining normativ me’yorga tushmasligi, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy hujjatlarda ular turlicha qo‘llanilishiga olib kelmoqda. KOVID-19 pandemiyasi davrida o‘zbek tilida paydo bo‘lgan yangi so‘zlarning aksariyati ingliz tilidan o‘zlashma sifatida kirgan yoki mavjud so‘zlar asosida yangi ma’nolar hosil qilgan holda shakllangan.

Tadqiqot ishida “koronovirus corpus”, Toni Thorning “#CoronaSpeak” veb sahifalari namunalaridan, Amanda Roig-Marin va V.Samigullinalar ilmiy tadqiqotlaridan foydalanib jamlangan 137 koroneologizmlarning leksikografik tahlili jarayonida nutq qismlarining tatbiqida ular to‘rtta asosiy nutq qismlariga tasniflangan. Koronologizmlarning aksariyati otlar, eng kam qismi esa ravishlarni tashkil etadi.

2.8-jadval

Koroneologizmlarning to‘rtta asosiy nutq qismlariga tasniflanishi

Nutq qismlari	Ot	Sifat	Fe’l	Ravish
Son	104	20	10	3
%	76	14.5	7.3	2.2



2.2-rasm. Koroneologizmlarning so‘z turkumlariga ko‘ra tasniflanishi

O‘zbek tilida koroneologizmlarni lug‘atlarga kiritish bo‘yicha maxsus ishlar hali to‘liq amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, kundalik nutqda va ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilayotgan yangi so‘zlar tilning boyishiga xizmat qilmoqda. Quyida o‘zbek tilidagi koroneologizmlarga misollar keltirilib, ularning leksikografik talqini beriladi.

“ZOOM” (o‘zlashma) – Onlayn uchrashuvlar va darslar uchun ishlatiladigan platformani anglatadi. O‘zbek tilida fe’l sifatida ham ishlatilib, “onlayn muloqot qilmoq” ma’nosini bildiradi. Misollar: “ZOOMda dars o‘tdik”, “Bugun o‘rtoqlarim bilan zoomlashdik”. Bu so‘z o‘rniga “onlayn uchrashuv” iborasi ham keng ishlatiladi. Ingliz tilidagi “ZOOM” atamasidan o‘zlashgan bu so‘z o‘zbek tilida ham o‘ziga xos qo‘llanilishga ega bo‘ldi va pandemiya davrida tezkor muloqot vositasi sifatida mashhur bo‘ldi. “ZOOM” – “zum” deb yozish holatlari uchraydi. Ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Zum” so‘zi quyidagida izohlanadi:

ZUM – 1) chillak o‘yinida: nafas olmay yugurib ketayotganda uzluksiz chiqarib boriladigan tovush (bu tovushning uzilishi nafas tugaganini, binobarin, o‘yinchi o‘yindan chiqqanini bildiradi). 2) juda qisqa fursat, lahza, on: Inobat go‘yo so‘z topolmagan odamday, bir *zum* jim qoldi (O.Yoqubov).

